



1913-yil aprel oyidan chiqib boshlagan

Fidoyilik —  
Vatanga xizmat demak!

2025-yil 2-avgust, shanba,  
87 (24.113)-son

O'zbek xalq  
maqoli

Eldagi  
gap -  
dildagi  
gap

# Zarafshon

www.zarnews.uz https://www.facebook.com/zarnews.uz @zarnews\_uz https://twitter.com/zarnews\_uz

**VATAN UCHUN, MILLAT UCHUN, XALQ UCHUN!**



## Viloyatimizni yanada rivojlantirish rejalari taqdim etildi

**Viloyatimiz yuqori iqtisodiy ko'rsatkichlari bilan respublikamiz hududlari orasida ajralib turadi. Keyingi 8 yilda viloyatimizda sanoat, turizm, infratuzilma va ijtimoiy sohalarida sezilarli yutuqlarga erishildi.**

Raqamlarga qaraydigan bo'lsa, 2016-yilda viloyatda sanoat mahsulotlari hajmi 7,4 trillion so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda ushbu ko'rsatkich 45,5 trillion so'mga yetdi va 6 barobarga oshdi. Bu davrda viloyatga jami 4,8 milliard dollar to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb etilgan va 3 mingdan ortiq sanoat korxonasi tashkil etildi. Ishlab chiqarish hajmi qariyb 2 barobarga oshdi. Joriy yilning 6 oyida esa sanoat mahsulotlari o'sishi 6,8 foizni tashkil etib, respublikaning o'rtacha ko'rsatkichidan ancha yuqori o'rinni egalladi.

Xorijdan yurtga qaytgan 422 mingdan ortiq fuqaroning viloyatda barqaror ish o'rniga ega bo'lish imkoniyati yaratildi. Viloyatda kambag'allik darajasi 7,5 foizdan 6,9 foizgacha pasaydi va yil yakunigacha bu ko'rsatkichni 5,4 foizgacha tushirish rejalashtirilgan. Biroq erishilgan yutuqlar bilan bir qatorda ishga solinmagan imkoniyatlar ham mavjud.

30-iyul kuni davlatimiz rahbariga viloyatdagi islohotlar natijasi va yangi rejalari to'g'risida axborot berildi.

Viloyatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining katta qismi Samarqand shahri, Urgut, Jomboy va Samarqand tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Qo'shrabot, Payariq va Nurobodda sanoat nisbatan rivojlanmagan. Davlatimiz rahbarining tashabbusiga ko'ra, viloyatda ham islohotlar shtabi tuzildi.

Taqdimotda tadbirkorlarning takliflari asosida ishlab chiqilgan yangi loyihalar haqida axborot berildi. Masalan, Nurobod tumanida 115 gektarlik maxsus sanoat zonasini tashkil qilish taklif etildi. Bu yerda 472 million dollarlik investitsiya loyihalari amalga

oshirilib, 1200 ta ish o'rni yaratiladi. Qo'shrabot tumanida xitoylik investorlar tomonidan 40 million dollarlik to'g'ridan-to'g'ri sarmoya hisobidan granit toshni qazib olish va qayta ishlash mo'ljallangan. Bulung'urlik tadbirkor in-vitro laboratoriyasi tashkil etib, kartoshka urug'i bo'yicha brend yaratishga kirishgan. Tumanda 100 million dollarlik biofarmasevtika korxonasini ishga tushirish ham rejalashtirilgan. Umuman, viloyatda 1 milliard 200 million dollarlik 14 ta yangi loyiha shakllantirilgan. Ushbu loyihalarning ishga tushirilishi natijasida 12 ming yangi ish o'rni, 82 million dollarlik eksport imkoniyati yaratilishi ko'zda tutilgan.

Samarqand aholi soni va o'sishi borasida respublikada eng yirik hudud hisoblanadi va shundan kelib chiqib, loyihalarni ishga tushirishni jadallashtirish bo'yicha aniq topshiriqlar berildi, - deydi viloyat hokimi v.b. A. Boboyev. - Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va bu boradagi dasturning bajarilishi yuzasidan 2026-yilda Bulung'ur tumanida 5 ming gektar maydonida kartoshka yetishtirish, Jomboy, Toyloq va Bulung'ur tumanlarida uzumchilikni rivojlantirish orqali aholi daromadlarini oshirishga alohida to'xtalindi.

Bundan tashqari, hozirda viloyatda xorijiy investorlar ishtirokida amalga oshirilayotgan 21 ta loyiha bo'yicha ham alohida tahlil qilindi va mazkur loyihalarning amalga oshirilishida yuzaga kelayotgan muammolar hal etildi.

Taqdimot davomida iqtisodiyot, qishloq xo'jaligi, qurilish, turizm, ijtimoiy soha, xotin-qizlar bandligini ta'minlash, sanoatni rivojlantirish borasida aniq topshiriqlar berildi.

**Milliy taomlarimizning nufuzini oshirish, viloyatimizda gastronomik turizmni keng yo'lga qo'yish maqsadida 1-3-avgust kunlari Samarqand shahrida birinchi marta "Samarqand oshi" xalqaro gastronomik festivali bo'lib o'tmoqda.**

Samarqand nafaqat betakror tarixiy va madaniy yodgorliklari, balki mazali milliy taomlari bilan ham mashhur. Bugungi kunda viloyatimizda gastronomik turizmni rivojlantirish, ayniqsa, milliy taomlarni xalqaro miqyosda keng targ'ib etishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Bu sa'y-harakatlar natijasida joriy yilda "Samarqand noni" va "Samarqand no'xatsho'ragi" geografik ko'rsatkich sifatida Adliya vazirligi tomonidan davlat ro'yxatiga olindi. Bu esa mahsulotlarimiz brend sifatida qo'llab-quvvatlanayotganini ko'rsatadi.

Uch kunlik festivalda yur-timzdagi va xorijdagi mashhur oshpazlar jam bo'lgan. Jumladan, Ozarbayjon, Turkiya, Yaponiya, Qatar, Misr, Pokiston, Koreya, Qozog'iston, Tojikiston va boshqa davlatlardan tashrif buyurgan taom ustalari o'z milliy taomlarini tayyorlash orqali mahoratini namoyon etmoqda. Shu bilan birga, 14 davlatdan 50 nafardan ziyod OAV vakillari Samarqandda bo'lib, ushbu festivalni xalqaro axborot maydonida yoritadi. #SamarkandOshi2025, #SamarkandPlovFestival, #Tas-

## "Samarqand oshi" festivali: dunyoning mahoratli oshpazlari jam bo'ldi

teOfSamarqand #xeshteglari ostida ijtimoiy tarmoqlarda keng qamrovli chellejlar targ'ib qilinadi.

Festival dasturiga ko'ra, birinchi kun Samarqand shahridagi Sulton Hovand Beka maqbarasi — Ashratxona majmuasida mamlakatimizning barcha hududlaridan kelgan sara oshpazlar ishtirokida osh tayyorlash bo'yicha musobaqa o'tkazildi. Tadbir qatnashchilarini viloyat hokimi o'rinbosari R. Qobilov, Sa-



3-avgust kuni "Silk Road Samarkand" xalqaro turizm markazida joylashgan "Boqiy shahar" majmuasida festivalning asosiy tadbiri — 7 tonnalik osh tayyorlash marosimi bo'lib o'tadi. Olmaliq kon-metallurgiya kombinatida maxsus tayyorlangan qozonda osh 50 nafar mahalliy va 5 nafar xorijiy oshpaz ishtirokida tayyorlanadi. Mehmonlar osh tayyorlash jarayonini o'z ko'zlari bilan kuzatib, taomdan bahramand bo'lish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Festival doirasida 200 nafardan ziyod oshpaz ishtirokida musobaqalar tashkil etiladi. 20 turdagi noyob osh tayyorlanib, oshpazlardan mahorat darslari, xorijiy mamlakatlarning oshlari va milliy taomlarini tayyorlash jarayonlari, hunarmandchilik va Sharq shirinliklari ko'rgazmalari tashkil etiladi.

F.RO'ZIBOYEV.

marqand shahar hokimi F. Karimov tabrikladi. Mohir oshpazlar taom tayyorlashdagi mahoratlarini namoyon etishdi. Jarayonda foydalanilayotgan masalliqalar va ziravorlar hakamlar hay'ati tomonidan kuzatib borildi. Festivalning ikkinchi kuni, ya'ni bugun Samarqand shahrining Alisher Navoiy ko'chasida Ozarbayjon, Malayziya, Qatar, Quvayt, Yaponiya, Pokiston, Turkiya, Tojikiston, Indoneziya, Xitoy, Hindiston, Polsha, Iordaniya, Misr, Koreya, Qozog'iston kabi 15 dan ortiq davlatdan kelgan dunyoga mashhur oshpazlar osh va o'z milliy taomlarini tayyorlash mahoratini namoyish etadi.

## VILOYAT IIB RAHBARLARI O'ZGARDI



**Viloyat hokimligida O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining tegishli buyrug'iga ko'ra, Samarqand viloyati Ichki ishlar boshqarmasi boshlig'i lavozimiga tayinlangan general-mayor Aripov Tohir To'iqunovichni tanishtiruv tadbiri o'tkazildi.**

Ichki ishlar vaziri Aziz Toshpo'latov va viloyat hokimi vazifasini bajaruvchi Adiz Boboyev ishtirokida o'tkazilgan yig'ilishda viloyatda aholi xavfsizligi va jamoat tartibini saqlash, jinoyatchilik va huquqbuzarliklarga qarshi kurashish borasida olib borilayotgan ishlar hamda kelgusidagi vazifalarga e'tibor qaratildi.

A. Toshpo'latov bugun respublikamiz hududlari orasida aholisi eng ko'p bo'lgan viloyatda jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olish va barvaqt aniqlash, "Xavfsiz mahalla", "Xavfsiz shahar" tamoyillarini hayotga tatbiq etishda soha xodimlari oldida turgan vazifalarga to'xtaldi. Bu borada ichki ishlar idoralari xodimlari yangi tayinlangan rahbar boshchiligida zimmalaridagi mas'uliyatni chuqur anglagan holda faoliyat yuritishi kerakligini ta'kidladi.

Yig'ilishda shuningdek, Ichki ishlar vazirining buyrug'i bilan Haydarov Ne'matilla Ibragimovich viloyat IIB boshlig'ining birinchi o'rinbosari etib tayinlangani ma'lum qilindi.

## Millatlararo totuvlik

tinchlik va barqarorlikning muhim omili



**Samarqand shahrida 30-iyul Xalqlar do'stligi kuni munosabati bilan madaniy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazildi.**

Dastlab viloyat Yoshlar markazida viloyatdagi milliy-madaniy markazlar rahbarlari, turli millatlar vakillari ishtirokida ko'rgazma va konsert dasturi namoyish etildi.

Viloyat hokimi o'rinbosari B. Karimov ishtirokchilarni Xalqlar do'stligi kuni bilan tabriklab, bugun Samarqandda 100 dan ortiq millat va elat vakillari ahil, bir oila bo'lib hayot kechirayotgani, 11 milliy-madaniy markaz samarali faoliyat ko'rsatayotganini ta'kidladi. Ular o'z milliy an'ana va qadriyatlarini, urf-odatlarini saqlab qolish va davom ettirishlari uchun barcha imkoniyatlarga ega. Viloyat hokimligi tashabbusi bilan "Do'stlik uyi" tashkil etilgan va bu

maskanda barcha milliy-madaniy markazlar, viloyatdagi nodavlat notijorat tashkilotlari uchun xonalar ajratilib, zarur shart-sharoit yaratilgan.

Ko'rgazmada har bir milliy-madaniy markaz o'z millatiga xos kiyim-kechak va buyumlar, taomlar, hunarmandlik mahsulotlari namunalari namoyish etdi. Konsert dasturi ham turli millatlar kuy-qo'shiq va raqslaridan iborat bo'ldi. Tadbirda viloyat hokimligi mas'ullari ishtirok etib, yig'ilganlarni Xalqlar do'stligi kuni bilan tabrikladi.

Garchi Xalqlar do'stligi kuni 30-iyulga belgilangan bo'lsa-da, biz — ko'p millatli Samarqand ahli bir necha kundan buyon ushbu sanani nishonlayapmiz, — deydi Koreys milliy-madaniy markazi rahbari Larisa Tsoy. — Bu yurtimizdagi millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik, xalqparvar davlat siyosati samarasi deb bilamiz. O'zbekistonda, xususan, Samarqandda koreys millatiga mansub aholining o'z an'ana va qadriyatlarini asosida hayot kechirishlari uchun hech qanday monelik yo'q. Aksincha, viloyat va shahar hokimligi, davlat va jamoat tashkilotlari doim faol qo'llab-quvvatlashadi. Mahallalarda ham bir necha millat vakillari totuv umr kechiryapmiz.



Tadbirlar viloyat "Do'stlik uyi"da davom etdi. Bu yerda viloyatdagi milliy-madaniy markazlari rahbarlari va vakillariga, shuningdek, aholi o'rtasida do'stlik va hamjihatlikni mustahkamlashga hissa qo'shib kelayotgan bir guruh faollarga viloyat hokimligining tashakkurnoma va esdalik sovg'alari topshirildi.



## Tizimlardagi muammolarning yechimi

iqtisodiy taraqqiyotni belgilaydi

**Bir necha yildan buyon davlat rahbari avgust oyida tadbirkorlar bilan ochiq muloqot o'tkazib, sohaga to'siq bo'layotgan muammolarga yechim topiladi. Joriy yildan har bir soha kesimida uchrashuvlar o'tkazilib, muammolarga chuqurroq kirib borish, tahlil qilish va yechim topish amaliyoti boshlandi. Viloyatimizda ham soha subyektlari tomonidan faoliyatdagi to'siqlar yuzasidan taklif, tashabbus va fikrlar bildirilmoqda.**

Joriy yilning 29-iyuligacha viloyatimizdagi tadbirkorlar tomonidan "Tadbirkorlar bilan ochiq muloqot" elektron platformasi orqali 790 ta murojaat va taklif kelib tushgan. Murojaatlarni sohalar kesimida tahlil qiladigan bo'lsak, tashqi iqtisodiy faoliyat (53 ta), tadbirkorlik faoliyatini tartibga solishni soddalashtirish (59 ta), tadbirkorlikni moliyaviy qo'llab-quvvatlash (51 ta), tadbirkorlarning huquqiy himoyasini kuchaytirish (156 ta), soliq tizimini takomillashtirish (50 ta), bank tizimi bo'yicha (164 ta) murojaatlar kelib tushgan. Yana ishlab chiqarish maydonlari bilan ta'minlash (102 ta), infratuzilma bilan ta'minlash (117 ta), transport va logistika (15 ta), mahsulot sotish bozorlarini topish (21 ta) borasida ham takliflar bildirilgan. 1100 va 1094 qisqa raqamli ishonch telefonlari orqali bildirilgan har bir murojaat respublika savdo-sanoat palatasida tashkil etilgan shtabda 30 ta vazirlik va idora mutaxassislar tomonidan o'rganilib, tegishli bo'yicha viloyatlarga yo'naltiriladi. Viloyat shtabida 19 ta boshqarma-tashkilot mutaxassislari tomonidan har bir murojaat va taklif o'rganilib, muammoga ijobiy yechim topishga harakat qilinadi.

Masalan, "AMONOV TIBBIYOT MARKAZI" MCHJ rahbari Sadridin Amonov viloyatning chekka hududlaridagi aholi moliyaviy yoki transport imkoniyati cheklanganligi sababli tibbiyot muassasalariga vaqtida murojaat qila olmayotgani ko'pchilikda katarakta, glaukoma, to'r parda kasalliklari ko'payotgani va bu ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlam oshishiga olib kelayotganini bayon etib, agar zamonaviy oftalmologik uskunalari bilan jihozlangan mobil klinika (maxsus tibbiy avtobus) xarid qilishda amaliy yordam ko'rsatilsa, ushbu transport vositasi orqali chekka hududlarga borib, aholiga tibbiy xizmat ko'rsatishini bildirgan.

"DIL-RIZO GARANT" xususiy korxonasi rahbari Javohir Xubbimov soliq qo'tilmasidan keladigan xatlar, ya'ni avtokamerallar va kassa apparatlarga chek berilmagan jarimalarini kalendar kunlik bo'yicha to'lanishi muammo bo'layotgani sababli ushbu bandni kalendar kunlik emas, ish kuni bo'yicha hisoblanishini taklif etdi.

Murojaatlar orasida agrar tarmoqdagi bo'shliqlar to'g'risida ham takliflar bildirilgan. Xususan, Ishtixon tumanidagi "Omonboy Farmonov" fermer xo'jaligi va g'allachilik klasteri boshlig'i Jo'ra-bek Far-

monov 1997-yildan buyon fermerlik bilan shug'ullani, hozir tasarrufida 1000 gektar yer maydoni va 600 dan ortiq kishi mehnat qilishini bildirib, fermerlar manfaatini himoya qilish, innovatsion texnologiyalarni o'zlashtirish, hosildorlikni oshirish va daromadni ko'paytirish borasida takliflar bildirgan.

- Hozirda fermer xo'jaliklari "Agrobank" tomonidan ekinlarni talofatdan himoyalash uchun majburiy 100-200 million so'mga sug'urtalanadi, lekin sug'urta kompaniyalarining mas'ullarini bilmaymiz ham, sug'urta kompaniyasini tanlash imkoniyati ham yo'q, - deydi J.Farmonov. - Yomon tomoni, agar biror talofat bo'lib, hosilga zarar yetsa, sug'urta qoplamasi berilmaydi. Urug'chilik to'g'risidagi qarorga ko'ra, faqatgina Paxtachilik kengashiga a'zo bo'lgan tadbirkor chigit sotishi mumkin, oddiy fermer sota olmaydi. Axir soliqni bir xil to'layotgan bo'lsak, nega klasterga bunchalik katta ustunlik berilishi kerak?

Biz g'allachilik klasteri, kooperatsiya ham tashkil qilganmiz, 1700 tonna paxta qabul qilamiz, lekin paxtachilik klasteri tashkil etish uchun ustav kapitali 40 milliard so'm bo'lishi kerak. Bu mablag' uncha-muncha tadbirkor uchun qiyinchilik qiladi.

Bir necha yildan buyon Xitoydan keltirilayotgan chigitni ekip, parvarishlaymiz, lekin chigit va seyalkasini keltirish bilan Xitoy paxtasini yetishtirib bo'lmaydi. Ularda gektariga 60 sentnergacha hosil olishadi, bizda esa o'sha xorijdan keltirilgan chigit ekilib, hosildorlik gektariga 30-35 sentnerni tashkil etmoqda. Shuning uchun ekishdan tortib parvarishlash, terib olish, hatto qayta ishlashgacha bo'lgan to'liq jarayondagi texnika va uskunalarni keltirish lozim. Paxta yetishtiruvchi fermerlar yoki ularning ishchilarini 3-4 yil davomida bir oyga yoki mavsum davomida 10 kundan uch marta malaka oshirish uchun Xitoyga yuborish lozim. Biz yangi texnologiya asosida paxta yetishtirishni o'rganaylik yoki bitta fermerning yillik ish jarayoni to'liq yoritib berilsa, natijaga erishish osonroq bo'ladi. Bu taklif inobatga olinib, sohada qo'llanilsa, fermerlar to'laydigan soliqlar 10 barobar oshadi.

Bildirilgan takliflarning hech biri e'tiborsiz qoldirilmagan, soha rivoji uchun tartib etilsa, tadbirkorlarni qiynayotgan muammolarga yechim topiladi va to'siqlar bartaraf etilib, taraqqiyotga xizmat qilishiga umid qilamiz.

O'ktam XUDOYBERDIYEV.

## O'qishni ko'chirish osonmi?

**Maktabni bitirgan yoshlar davlat oliy ta'lim muassasasiga o'qishga kira olmasa, vaqtni boy bermaslik uchun nodavlat oliy ta'lim muassasasiga imtihonsiz o'qishga kiradi. Ularning ko'pchiligi bir muddat o'qigach, o'qishni davlat oliy ta'lim muassasasiga ko'chirishni niyat qilishadi. Ammo davlat oliy ta'lim muassasasiga o'qishni ko'chirish oson emas. Buning o'z tartib-qoidasi bor.**



Xorijiy va nodavlat oliy ta'lim muassasalaridan davlat oliy ta'lim muassasalarining mos va turdosh ta'lim yo'nalishlariga o'qishni ko'chirish uchun talabdan alohida iqtidor talab etiladigan ta'lim yo'nalishlari bo'yicha kasbiy (ijodiy) imtihonlar, boshqa ta'lim yo'nalishlari bo'yicha test sinovlari talab etiladi. Bunda, kasbiy (ijodiy) imtihonlar tegishli oliy ta'lim muassasasi tomonidan, test sinovlari Bilim va malakalarni baholash agentligi tomonidan o'tkaziladi. Bu Prezidentimizning 2022-yil 15-iyunda "Davlat oliy ta'lim muassasalariga o'qish-

ga qabul qilish jarayonlarini tashkil etish to'g'risida"gi qarorida belgilangan.

**Dastlab o'qishni ko'chirmoqchi bo'lgan talaba 15-iyuldan 5-avgustga** qadar onlayn ariza taqdim etadi. Uning arizasi oliy ta'lim muassasasi, tegishli vazirlik (idora) yoki Davlat komissiyasi tomonidan ko'rib chiqiladi. Talabaning arizasi ko'rib chiqilgach, unga imtihonda qatnashish yoki qatnashmaslik haqida xabar beriladi.

Har yili test sinovlaridan oldin Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining tegishli buyrug'i bilan o'qishni ko'chirish bo'yicha

o'tish ballari tasdiqlanadi. Bu haqda Bilim va malakalarni baholash agentligining rasmiy veb-saytida e'lon qilinadi. Talaba testda tasdiqlangan o'tish balini to'play olishi kerak. Agar u test sinovida o'tish balini to'play olmasa, tabaqalashtirilgan to'lov-kontrakt shartlari asosida o'qishni ko'chirishga ruxsat beriladi.

Agar talaba o'tish balini to'play olsa, ushbu oliy ta'lim muassasasi tomonidan u ilgari ta'lim olgan oliy ta'lim muassasasiga uning shaxsiy yig'ma jildini jo'natish uchun so'rovnoma yuboriladi.

So'rovnoma olingandan so'ng talaba ilgari ta'lim olgan oliy ta'lim muassasasi rektorining talabalar safidan chetlashtirish haqidagi buyrug'i asosida uch kun muddatda talabaning shaxsiy yig'ma jildi (ro'yxati bilan) uni o'qishga qabul qilgan oliy ta'lim muassasasiga jo'natiladi yoki ariza bilan o'qishi ko'chirilgan talabaga beriladi.

Talaba nodavlat oliy ta'lim muassasasidan hujjatlarini olib, davlat oliy ta'lim muassasasiga topshiradi. Agar fanlardagi farqlar soni 4 ta va undan yuqori bo'lsa, unda talaba bir kurs past bosqichga qabul qilinadi.

Talabani talabalar safiga qabul qilish to'g'risidagi buyruq to'lov-kontrakt asosida o'qishga tavsiya etilganlar to'lovni belgilangan muddatda amalga oshirgandan so'ng chiqariladi.

Yaxshi tomoni, talaba katta miqdordagi kontrakt to'lovidan qutuladi. Endi unga, to'g'rirog'i, ota-onasiga davlat oliy ta'lim muassasasidagi kontrakt puli uncha katta

summa bo'lmay qoladi. Ammo yugur-yugur bu bilan tugamaydi. O'quv rejalaridagi fanlar bo'yicha farqlar aniqlanganda, talaba akademik qarzdor sifatida o'qishga qabul qilinadi. Talaba o'quv yilining oxiriga kelib, ikkinchi semestr imtihonlarini topshirib bo'lgach, istasa, qarzdor bo'lib qolgan fanlarini yopish uchun to'lov qiladi. Istamasa, keyingi yilga qoldirishi mumkin.

O'quv yili tugagach, oliy ta'lim muassasasida qarzdor talabalarining guruhi shakllantiriladi. Kredit-modul tizimi bo'yicha qayta topshirmoqchi bo'lgan, to'lovni amalga oshirgan talabalarga fanlar bo'yicha darslar tashkil etiladi.

Xullas, belgilangan dars soatlari o'tib bo'lingach, talaba qarzdor fanlardan imtihon topshiradi. Imtihondan o'ta olmasa, keyingi yil yana to'lov qilib, qaytadan imtihon topshiradi. Mana shu bosqichlarni bosib o'tganidan so'ng talaba davlat oliy ta'lim muassasasida o'qishni davom ettiradi.

Bundan tashqari, davlat oliy ta'lim muassasalarining mos va turdosh bo'lmagan ta'lim yo'nalishlariga o'qishni ko'chirishni istagan talabalar bir martalik tabaqalashtirilgan to'lov-kontrakt asosida imtihonsiz qabul qilinadi. Xorijdan mos va turdosh bo'lmagan yo'nalishga o'qishni ko'chirishga ruxsat berilmaydi.

Bugungi talabalar asosan nodavlat oliy ta'lim muassasasidan davlat oliy ta'lim muassasasiga o'qishni ko'chirishni istagan uchun bu haqda batafsilroq yoritishga harakat qildik. Endi o'qishni ko'chirishning boshqa holatlari ham bor. Bu haqda quyida

keltiramiz.

**Davlat oliy ta'lim muassasasining birlan boshqasiga** talabalar o'qishni ko'chirishga faqat ikkita uzrli sababga asosan ruxsat beriladi:

- talaba oila qurishi munosabati bilan turmush o'rtog'i doimiy yashaydigan hududdagi oliy ta'lim muassasasiga o'qishni ko'chirish uchun murojaat qilganda;
- davlat xizmatchisi ish joyi o'zgarigan taqdirda uning turmush o'rtog'i yoki voyaga yetmagan farzandi o'qishni ko'chirish uchun murojaat qilganda.

Davlat oliy ta'lim muassasasidan nodavlat oliy ta'lim muassasasiga o'qishni ko'chirish tartibini nodavlat OTMlarning o'zi mustaqil belgilaydi. Shuningdek, nodavlat oliy ta'lim muassasasidan nodavlat oliy ta'lim muassasasiga yoki xorijdan nodavlat oliy ta'lim muassasasiga o'qishni ko'chirish tartibini ko'chirmoqchi bo'linayotgan nodavlat OTMning o'zi hal qiladi.

Bundan tashqari, davlat oliy ta'lim muassasasi ichida bir yo'nalish yoki fakultetdan boshqa yo'nalish yoki fakultetga o'qishni ko'chirish masalasini rektor hal qiladi. Oliy ta'lim muassasasi ichida bir yo'nalish doirasida ta'lim shaklini yoki tilni o'zgartirish masalasini ham OTM ma'muriyati belgilaydi. Ammo kechki, sirtqi yoki masofaviydan kunduzgiga o'tkazish deyarli imkonsiz. Lekin kunduzgi ta'limdan kechki, sirtqi yoki masofaviydan ko'chirish mumkin.

**Xurshida ERNAZAROVA, "Zarafshon" muxbiri.**

# Қурилиш бу қинғирликми?

**Вилоят ҳокимлигида ўтказилган навбатдаги ҳокимлик соатида қайд қилинган рақамларни эшитган одам борки, шундай хулоса қилиши тайин. Йиғилиш тафсилотларига ўтишдан аввал бир гапни айтиш ўринли, бизнингча. Негаки, пойтахтда ўтган йили иш бошлаган криминология тадқиқотлари институти Марказий Осиёда ягона ҳисобланади. Дунё миқёсида эса бундай институтлар сони йигирматага ҳам етмайди. Аниқроғи, мақтанса арзигулик, тадқиқотлари – прогнозлари хулоса қилгулик даргоҳ.**

Айни муассаса берган прогнозга кўра, жорий йилда соҳалар орасида қурилишда коррупция энг кўп қайд этиларкан. Албатта, бунинг турли сабаблари бор, улардан бири мамлакатимизда бунёдкорлик ишлари ҳар йилгидан каррасига кўпроқ амалга оширилаётганидир.

Соҳа бўйича республика миқёсидаги рақамлардан хабаримиз йўқ. Лекин вилоятимизда қурилиш борасидаги режалар чинданда улкан. Биргина мисол, 2025 йилги ижтимоий ва ишлаб чиқариш инфратузилмасини ривожлантириш дастурига асосан 178 та объектда қурилиш, реконструкция, мукамал таъмирлаш ва жиҳозлаш ишлари амалга оширилиши белгиланган.

### ЭЗМАЙ ДЕЙСАН-У ТИЛ БИЛАН ҚЎЛ ҚИЧИЙВЕРАДИ-ДА...

Бошқа ҳудудларни билмадик, ammo вилоятимизда ёмон бир тенденция кучаяётгандек – даромад қилиш, мўмай даромад олиш учун қурилиш соҳасига кириб олиш керак.

Бу бошқа ҳудуддан келиб иш бошлаган одамга ялт этиб кўриниши мумкин. Балки шунинг учун вилоят ҳокими фаолиятига бир йил тўлмасидан қурилиш ишларидан такрор-такрор норозилигини билдириб келаётгандир?

Ким билсин? Аниғи шуки, юқориде айтилган дастур доирасидаги ишлар учун 1 триллион 112 миллиард сўм маблағ ажратилган. Ҳа, пул бор, режа тайёр дегани иш батартиб кетаверади, деган эмаскан-да.

Башарти шундай бўлмаганда биринчи ярим йилликда янгидан бошланувчи объектларда 40 фоиз, йилдан-йилга ўтувчи объектларда 50 фоиз қурилиш ишлари бажарилиши керак эди. Лекин афсуски, июль ойи якунлаётган бўлса-да, 6 та объектда қурилиш ишлари бошланмаган. Тўғри, ишлар режадагидан 5-10 фоиз, боринг 20-25 фоиз кечикаётган бўлса, тушуниш мумкин. Ammo ҳали бир ғишт қўйилмаганига нима дейиш керак?

Масалан, "Самарқандсувқурилишинвест" давлат муассасаси буюртмачилигидаги Каттақўрғон тумани "КРС" каналидаги шарҳарани реконструкция қилиш, "Ягона буюртмачи хизмати" буюртмачилигидаги Иштихон туманидаги Жарости маҳалласи ҳудудидан оқиб ўтувчи Қорадарё дарёсининг 1 километр қирғоғини мустаҳкамлаш бўйича ишлар бошланмаган. Савол туғилади, йилдан-йилга ўтувчи объект бўлгани учун ишларни бийўйла келгуси йил бажарамиз, дейишганмикан?

Махсус муҳандислик-қурилиш бошқармаси томонидан қурилатган Нурободоғи Тимсой сойда ишлар 7 фоиз, Иштихондаги Кўтармасойда 12 фоиз, Қўшрабоддаги Пангатсойда 14 фоиз, Иштихондаги Оқдарё дарёсида 21 фоиз қирғоқни мустаҳкамлаш ишлари олиб борилган ҳолот.

Яхши тўмон шуки, "ёгингарчилик бўлмаяпти", қор босгунча режадаги юмушларни тугатиб оламиз, дейишганмикан?

### МАКТАБНИ ҚИШДА ҚУРИБ БЎЛМАЙДИ...

Юқориде санаб ўтилган объектларни кечиктириш иқтисодий зарар келтириши, турли хавфларга сабаб бўлиши мумкин. Ammo мактаблар қурилиши пайсалга солиниши мутлақо мумкин эмас. Чўчки истиқлолнинг дастлабки йилларида молиявий имконият камлиги сабаб мактабга эътибор сусайди. Бугун таҳлилчилар ўша дастлабки пайтлардаги 10 йилликда таълим олганларни йўқотилган авлод, дея таърифлашади.

Бугун ҳамма имкон бўлган бир шaroитда мактаб ва мак-



табгача таълимда, у қурилиш билан боғлиқ бўлса ҳам бир кун, бир соат кечикиши жиноят сифатида баҳолаш мумкин. Афсуски, "Инфратузилмани ривожлантириш" инжиниринг компанияси буюртмачилигидаги 20 та объектда, шундан 12 та мактаб ва 8 та мактабгача таълим муассасасида қурилиш ишлари 40 фоизга яқинлашган ҳолот. Энг ёмони, 12 та объектнинг 1-қаватида ғишт терилаётган бўлса, 2 та объектда энди пойдевор қўйилмоқда.

Бажарилган ишлар бўйича ҳам "етарлича" камчиликлар кузатилган. Мисол учун, Иштихон туманидаги 29-мактабда лойиҳадан четлашган ҳолда ишлар бажарилган, зинапоё армокаркаслари ва балкалари лойиҳа бўйича қилинмаган.

Самарқанд шаҳридаги 70-боғчада 1-қаватда ораёлма плиталар лойиҳа асосида монтаж қилинмаган, техник назорат график асосида олиб борилмаган. 39-мактабда терилаётган ғишт чоклари қоришма билан тўлиқ тўлдирилмаган, бино пойдеворини гидроизоляция қилиш ишлари сифатсиз бажарилган.

Оқдарёдаги 45-мактабда оралиқ сеткалар лойиҳа асосида бажарилмаган, деворлар чоклари қоришма билан тўлдирилмаган.

Паст Дарғом туманидаги 3- ва 55-мактаблар қурилишида ҳам кўплаб камчиликлар кузатилган.

Аслида бошқа тоифадаги бунёдкорлик ишлари ҳам жадал суръатда кетмаяпти. Мисол учун, "Ягона буюртмачи хизмати" буюртмачилигида 25 та объектда қурилишлар амалга оширилаётган бўлса, шундан 7 тасида белгиланган ишлар 40 фоизга ҳам бажарилмаган.

Автомобиль йўллари қўмитаси буюртмачилигидаги 7 та объектнинг 3 тасида қурилиш ишлари 50 фоизга бажарилмаган. Шундан 2 та объектда ишлар энди бошланган.

"Ягона буюртмачи хизмати" давлат унитар корхонаси буюртмачилигидаги Республика иxtиссослаштирилган она ва бола саломатлиги илмий-амалий тиббиёт маркази биноси 1-қаватида терилган газоблок деворлари сифатсиз бажарилган, металл сердечниклар монтаж қилинмаган, ораёлма плиталар оралиқлари бетон қоришма билан тўлдирилмаган.

**Муҳокама жараёнида қурилишга масъул раҳбарлар ва техник назоратчилар огоҳлантирилиб, белгиланган ишларни сифатли ва ўз вақтида бажариш юзасидан топшириқлар берилди. Айрим мутасаддиларнинг вазифасида қолиш-қолмаслиги бу топшириқларнинг ижросига боғлиқлиги қайд этилди.**



## Elektrchilar ham yon kamera bilan ishlayapti

**Bu haqda "Hududiy elektr tarmoqlari" AJ Samarqand hududiy filiali tomonidan viloyatda elektr energiyasi ta'minotini yaxshilash bo'yicha joriy yilning 6 oyi davomida amalga oshirilgan ishlarga bag'ishlangan matbuot anjumanida ma'lum qilindi.**

Ta'kidlanishicha, bugungi kunda viloyatdagi 981 ming 249 nafar iste'molchiga 14 ming 564 ta transformator punkti orqali elektr energiyasi yetkazib berilmoqda. Elektr uzatish tarmoqlari va transformator punktlarida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan avariya holatlarini bartaraf qilish maqsadida viloyat bo'yicha 603 nafar ishchi va 22 ta maxsus texnikadan iborat 95 ta avariya brigadalari shakllantirilgan.

- Yozni betalafot o'tkazish hamda avariylarni tezkor bartaraf qilish uchun 30 dona har xil quvvatdagi transformator punkti, 8,6 kilometr kabel va simlar, 76 dona mufta, 2,9 tonna transformator moyi zaxirasi yaratilgan, - deydi "Hududiy elektr tarmoqlari" AJ Samarqand hududiy filiali bosh muhandisi vazifasini bajaruvchi Shamsiddin Boltayev. - Iste'molchilarga xizmat ko'rsatish sifatini yanada yaxshilash maqsadida joriy yilda 23 dona "Damas" avtomashinasi hamda 4 dona maxsus texnika xarid qilinib, tegishli hududlarga topshirildi. Shuningdek, filial tarkibiy korxonalarining olis hududlardagi ustachilik bo'limlari uchun 47 dona maxsus jihozlangan konteynerlar xarid qilinib, xodimlarga xizmat xonalari tashkil etildi.

Joriy yil kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik doirasida 1207 dona transformator punkti va 2919,1 kilometr elektr uzatish tarmoqlarini mukammal ta'mirlash rejalashtirilgan. O'tgan davr mobaynida 876 dona transformator punkti va 2171,4 kilometr elektr uzatish tarmoqlari mukammal ta'mirlandi. Viloyatda iste'molchilarga yetka-

zib berilayotgan elektr energiyasi ta'minotini yaxshilash maqsadida yana 26 ming 490 dona temir-beton ustun hamda 371 dona har xil quvvatdagi transformator punkti o'rnatish, 1321,2 kilometr elektr uzatish tarmoqlari tortish rejalashtirilgan.

### "KAMBAG'ALLIKDAN FAROVONLIK SARI" DASTURI AMALDA

Shamsiddin Boltayevga ko'ra, Prezidentimizning 2024-yil 23-sentabrdagi "Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturini amalga oshirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga asosan, viloyatdagi 88 ta mahallada 495 kilometr elektr uzatish tarmoqlari, 233 ta transformator punkti hamda 12 ming 975 dona temir-beton tayanchlar o'rnatish ishlari amalga oshirilishi ko'zda tutilgan. Hozirga qadar 410,2 kilometr elektr uzatish tarmoqlari tortilib, 10 ming 895 dona temir-beton tayanchlari va 174 dona transformator punkti o'rnatilgan.

Qaror ijrosini ta'minlash maqsadida viloyatdagi tuman va shaharlarni ijtimoiy iqtisodiy rivojlantirish rejasiga muvofiq, 148 mahallada (306 ta obyektga) 382,5 kilometr elektr uzatish tarmoqlari hamda 85 ta transformator punkti va 10015 dona beton ustunlarini yangilash va modernizatsiya qilish ishlari amalga oshiriladi. Yil boshidan esa 41 mahallada (38 ta obyektga) 58,3 kilometr elektr uzatish tarmoqlari hamda 5 dona har xil quvvatdagi transformator punktlarida qurilish-montaj ishlari amalga oshirilgan.

### YON KAMERALAR TEST REJIMIDA ISHLAMOQDA

Sohada "Geo-axborot" elektron tizimi ishga tushirilib, mazkur tizimda inson omilisiz iste'molchi elektr tarmoqlariga ulanishni avtomatik tarzda onlayn tanlash imkonini yaratilmoqda.

- Bugungi kunda korrupsiyon holatlarning oldini olish uchun "E-dalolatnoma" rasmiylashtirish tizimi yo'lga qo'yildi hamda tuman va shahar elektr ta'minoti korxonalariga 158 dona planshet ajratildi, - deydi "Energosavdo" filiali Samarqand bo'linmasi boshlig'i Asad Shukurov. - Shu bilan birga, iste'molchilar bilan bevosita ishlovchi inspektor xodimlarni yon kameralar bilan ta'minlash choralari ko'rilmog'da. Hozirda Xitoydan 54 dona yon kamera (bodi kamera) xarid qilingan va Samarqand tumani hamda Samarqand shahar inspektorlariga berilgan.

### 3900 GA YAQIN NOQONUNIY ULANISH ANIQLANGAN

"Hududiy elektr tarmoqlari" AJ Samarqand hududiy filiali mas'ullarining qayd etishicha, joriy yilning olti oyda 950 ming 670 ta elektron hisoblagich ASKUE tizimidagi elektron hisoblagichlarga almashtirilgan. Hozirgi vaqtga qadar viloyat iste'molchilariga 975,7 milliard so'mlik elektr energiyasi yetkazib berilib, 1031,1 milliard so'm mablag' undirilgan. Bugunga qadar 3893 ta dalolatnoma rasmiylashtirilib, 186 milliard 361 million so'm qayta hisob-kitob qilingan. Viloyat iste'molchilariga joriy yilning iyul oyiga qadar jami 2827,9 million kVt soat elektr energiyasi yetkazib berilgan. Texnologik yo'qotishlarni kamaytirish, yirik fotoelektr stansiyalar va quyosh panellari o'rnatish hisobiga 501,6 million kVt soat elektr energiyasi iqtisod qilingan.

Fazliddin RO'ZIBOYEV.

## Manzil koloniyada tibbiy ko'rik o'tkazildi

**O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman)ning viloyatdagi mintaqaviy vakili tomonidan Past Darg'om tumanida joylashgan 37-jazoni ijro etish manzil koloniyasiga monitoring tashrifi amalga oshirildi.**

Mintaqaviy vakil hamda viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasining tibbiyotchilar guruhi muassasada jazo muddatini o'tayotgan shaxslarga ko'rsatilayotgan tibbiy xizmat sifati bilan qiziqdi, ular chuqurlashtirilgan tibbiy ko'rikdan o'tkazildi.

Ko'rikda manzil koloniya va shartnoma obyektlaridagi 226 nafar mahkum va mahkumalar o'nga yaqin mutaxassislar tomonidan tekshirildi, laboratoriya tahlillari amalga oshirildi hamda salomatligining holatiga qarab tibbiy maslahat va tavsiyalar berildi.

- Tashrif davomida koloniyada jazo muddatini o'tayotgan shaxslarning yashash sharoiti, oshxona, oziq-ovqat mahsulotlarini saqlash tartibi, gigiyenik vositalar bilan ta'minlanishi kabi ijtimoiy-maishiy holatlar ham monitoring qilindi, - deydi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman)ning viloyatdagi mintaqaviy vakili Otabek Toshniyozov. - Shuningdek, Urgut tumani Jar tepa qishlog'ida joylashgan shartnoma obyektlariga, ya'ni mahkumalar ishlayotgan ishlab chiqarish seklari,



kash-bunar maskanlaridagi sharoit bilan tanishdik, ularga ish haqi to'lanishi va issiq ovqat bilan ta'minlanishi holati o'rganildi. Bundan tashqari, muassasada qabul uyushtirib, mahkum va mahkumalar bilan yakka tartibda suhbatlar o'tkazdik, ularning murojaatlarini tingladik.

Monitoringda aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan koloniya ma'muriyatiga tegishli tavsiyalar berildi.

**Яқинда вафот этган бир онахоннинг фотиҳасига бордик. Қўрғун тиловат қилиб, ҳамдардлик билдирилгач, кетишга чоғландик. Аммо хонадон эгалари, оқсоқоллар қўярда-қўймай бизни дастурхонга таклиф қилишди.**

Дастурхонда синдирилган нонлар бўлса-да, хизмат қилаётган йигит яна учта иссиқ нон келтириб қўйди. 20-25 ёшлардаги меҳмон йигит битта нонни ушатди.

- Ўғлим, бекор қилдингиз-да, - деди даврада ўтирган отахон. - Ана, дастурхонда уштилгани кўп-ку! - Отахон, қизиқмисиз, биров ушатган нонни еймизми? - деди йигит ҳам бетгачопарлик қилиб. Орага ноқуллай жимлик чўқди.

Бироз вақт ўтган, отахон даврага юзланди: Узр, вақтларингизни олсам ҳам бошимдан ўтган бир воқеани айтиб берсам.

Дастурхон атрофида ўтирганлар отахонга қулоқ тундик. - Баҳор ойлари эди, - деб бошладди отахон ҳикоясини. - Мен ўн беш, синглим ўн уч ёшларда эдик. Қишлоғимизда очарчилик бошланганди.



Бир бурда нон топиш амримаҳол. Отам ҳеч бўлмаса бир ҳовуч бугдой топиб келиш илинжида мардикорликка чиқиб кетганди. Аммо орадан йигирма кун ўтса-да, отамдан дарақ йўқ эди. Очликка дош беролмай синглим иккимиз ҳолдан тойиб, ётиб қолдик. Оғзимиздан тинимсиз қорамтир сўлак оқарди. Онам шўрлик гоҳ бизга, гоҳ йўлга мўлтираб термудди. Уч кундан кейин синглимнинг кўз очингач ҳам мадори етмай, тонгга бориб жони узилди.

Бечора онамнинг овоз чиқариб йўғлашга дармони етмади. Қўш-нимиз Акбар амакининг ёлғиз ўзи синглимни қабрга қўйиб келди. Онам иккимизнинг ҳам аҳволимиз тобора

оғирлашиб борарди. Тушга яқин озорқ ўн, ярим қоп қўтган нон кўтариб, отам кириб келди. Синглимнинг очликдан жон берганини эшитиб, ўқириб йўғлаб юборди...

Биз тирик қолдик, аммо жажжи синглимнинг онамдан нон сўраб, илтижолу боққанлари юрагимда бир умр изтироб бўлиб қолди...

Отахон ҳикоясини тугатар экан, бўғизга тикилган йиғидан ўзини зўрға тийди.

Бу ҳикояни эшитиб, ҳаммамиз жим бўлиб қолдик. Нон ушатган йигит мулзам бўлиб, ерга қаради.

**НЕМЪАТ АСҚАРОВ,**  
Паст Дарғом тумани.

РЕКЛАМА, E'OLONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUHOJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

### DA'VOLAR BO'LSA...

Past Darg'om tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Hamidov Norbek Komil o'g'li notarial idorasida marhum Rasulov Baxtiyor Ibragimovichga (2017-yil 7-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Xamidov Norbek Komil o'g'li notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Past Darg'om tumani Juma shaharchasi, Amir Temur ko'chasi, 48-uy.**

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariuslarda marhum Pirnazarov Amon Batirovichga (2024-yil 27-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariuslarga murojaat etishlarini so'raymiz.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aminov Mashhurjon Yusufovich notarial idorasida marhum Marupov Azim Anvarovichga (2022-yil 1-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Aminov Mashhurjon Yusufovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Sug'diyona maskani, 14/12-uy.**

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Norqulov Alisher Toshboltayevich notarial idorasida marhum Bekmuratov Qosim Allaberdievichga (2024-yil 9-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Norqulov Alisher

Toshboltayevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Firdavsiy ko'chasi, 96-uy.**

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mirzayeva Barno Jo'raqulovna notarial idorasida marhum Shamsiyev Keldiyor Shamsiyevichga (2020-yil 8-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mirzayeva Barno Jo'raqulovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Jomboy tumani Zebuniso ko'chasi, 4-"A" uy.**

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariuslarda marhum Turdiyeva Mukambalga (2024-yil 4-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariuslarga murojaat etishlarini so'raymiz.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Narzullayeva Lola Shukurullayevna notarial idorasida marhum G'afarova Lola Hafizovnaga (2022-yil 28-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Narzullayeva Lola Shukurullayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Nodirabegim ko'chasi, 5/1-uy.**

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Jo'rayev Kamoliddin

Muhiddinovich notarial idorasida marhum Badalov Jamoliddin Xushvaxtovichga (2025-yil 2-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri O'zbekiston ko'chasi, 35-uy.**

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Islomov Shuhrat Qarshiboyevich notarial idorasida marhum Aqbutayev Ravshanga (2018-yil 1-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Islomov Shuhrat Qarshiboyevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 13-uy.**

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ashurova Dilafuz Ziyodullayevna notarial idorasida marhum Ibov Karim Egamqulovichga (2024-yil 9-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ashurova Dilafuz Ziyodullayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 7-uy.**

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ashurova Dilafuz Ziyodullayevna notarial idorasida marhum Davirova Anorxolga (2023-yil 16-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning

Ashurova Dilafuz Ziyodullayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 110-uy.**

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Norqulov Umid Rustamovich notarial idorasida marhum Akramov Aminjon Uzoqovichga (2023-yil 9-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Norqulov Umid Rustamovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Turkiston ko'chasi, 62-uy.**

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Abdullayev Nodir Jamoliddinovich notarial idorasida marhum Yarashova Safiya Karayevnaga (2023-yil 21-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Abdullayev Nodir Jamoliddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand tumani U.Samiyev ko'chasi, 1-uy.**

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasida marhum Xaqulov Abdumud Xolnazarovichga (2024-yil 27-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 76-uy.**

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Xodjayev Farrux Farxodovich notarial idorasida marhum Xasanov Akram Attamovichga (2019-yil 9-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Xodjayev Farrux Farxodovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Chuqur yo'l ko'chasi, 9-"B" uy.**

**BEKOR QILINADI**  
Urgut tumanidagi Jalilov Dilshod Muxidinovich yakka tartibdagi tadbirkorining (JSHSHIR: 30403863820029) dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Sotuvchi Muminova Mohigul Rustamovna va sotib oluvchi Sharipova Sabina Ravshanovna o'rtasida Samarqand shahri Gagarin ko'chasi 40-uy, 13-kvartirada joylashgan savdo do'koni uchun tuzilgan, Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ismoilova Shahlo Bahriloyevna notarial idorasidan 2020-yil 10-iyunda tasdiqlanib, Ksh 033815 SA blankada tuzilgan, 202001754000156 raqam bilan reestruga kiritilgan oldi-sotdi shartnomasining sotib oluvchidagi nusxasi hamda ushbu savdo do'konining kadastr hujjatlari to'plami yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Samarqand davlat universiteti huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish mintaqaviy markazidan 2017-yilda Umarova Sayyora Rasulovna nomiga berilgan qayd raqami 1493, QT № 036768 raqamli qayta tayyorlov diplomi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

